

KO`MAKCHI SO`Z TURKUMINING USLUBIYATI

Achilova Zarina Saidovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi,
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi.

achilovazarina55@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14531756>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko`makchi so`z turkumining uslubiya-tiga doir darsda qo`llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar haqida ma`lumot beriladi.

**Kalit so`zlar.** Yangi O`zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, juftlikda ishlash, ovozli diktant, videousul, telegramma, matbuot sahifalarida, sof va vazifadosh ko`makchi.

TECHNOLOGY OF THE AUXILIARY WORD GROUP

Abstract. This article provides information about new pedagogical technologies used in the lesson on the methodology of auxiliary vocabulary.

Key words. New Uzbekistan, development strategy, work in pairs, voice dictation, video method, telegram, on press pages, pure and dedicated assistant.

ТЕХНОЛОГИЯ ВСПОМОГАТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ СЛОВ

Абстрактный. В данной статье представлена информация о новых педагогических технологиях, используемых на уроке по методике вспомогательной лексики.

Ключевые слова. Новый Узбекистан, стратегия развития, работа в парах, голосовой диктант, видеометод, телеграмм, на страницах прессы, чистый и преданный помощник.

“Ko`makchi so`z turkumining uslubiya-ti” mavzusi uchun 2-bosqich o`quv rejasida 2 soat ajratilgan. Ushbu dars 2 soatga mo`ljallangan bo`lib, unda ko`makchi so`z turkumining uslubiya-ti haqidagi ma`lumot beriladi.

O`quv mashg`uloti quyidagi usullardan fo`ydalanilgan holda o`tkaziladi: “Juftlikda ishlash”, videousul, “Kim g`olib?”, “Ovozli saylanma diktant”, “Fikrni charxlang!”, “Telegramma”, “Matbuot sahifalarida” usuli. Dars quyidagi reja asosida o`tkaziladi:

O`quv mashg`uloti “**Kun hikmatlari**” usuli bilan boshlanadi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikri elektron doskada namoyish qilib izohlanadi:

“**Prezident** sifatida men mamlakatimiz tinchligi, el-yurt farovonligi, Vatan taraqqiyoti yo`lida butun borlig`imni bag`ishlab xalqimga sadoqat bilan xizmat qilishni hayotimning ma`no-mazmuni deb bilaman. Siz, qadrli vatandoshimning, chin dildan qo`llab-quvvatlashingiz, nuroniy otaxon va onaxonlarimizning duolari, aziz yoshlarimizning ishonchi menga katta kuch va g`ayrat beradi”.

Shuningdek, darsda topshiriqlarni bajarishda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Yangi mavzu bayonidan so'ng quyidagi usullardan foydalanib, mavzu mustahkamlanadi.

"Juftlikda ishlash" usuli

Ushbu matndagi sof va vazifadosh ko'makchilarni toping.

"Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan **holda** keyingi yillarda "Inson qadri **uchun**" tamoyili asosida xalqimiz farovonligini oshirishga e'tibor qaratildi.

-inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish **orqali** xalqparvar davlat barpo etish;

-nodavlat, notijorat tashkilotlari **bilan** xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish **orqali** ularning bandligiga ko'maklashish loyihalar ko'lamini kengaytirish;

-ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish **bo'yicha** kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish **orqali** yoshlarni ishlab chiqarishdan ajralmagan **holda** oliy ma'lumot olish imkoniyatini yanada kengaytirish".

"Ovozli saylanma diktant" usuli

Quyidagi matn ovozli tarzda kompyuter orqali o'qiladi, o'quvchilarga yordamchi so'zlarni saylab yozish topshiriladi.

"Taraqqiyot strategiyasida quyidagilarga e'tibor qaratilgan:

-hududlar kesimida ichki turizm oqimi **ham** yo'nalishini tashkil qilishga **oid** asosiy prognoz ko'rsatkichlarini tasdiqlash;

-mehnat jamoalari orasida mamlakat **bo'ylab** sayohatlarni rag'batlantiruvchi turizm xizmatlarini taqdim etish;

-Samarqand xalqaro aeroportiga yangi xorijiy tashuvchilarni jalb qilish **orqali** parvozlar soni **va** geografiyasini oshirish **orqali** turistlar **bilan** yo'lovchilar oqimini ko'paytirish;

-har yili qabul qilinadigan davlat dasturiga yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash **bo'yicha** Kompleks dasturni ishlab chiqish **va** amalga oshirish;

-umumta'lim maktablarida chaqiruvga **qadar** boshlang'ich tayyorgarlik fanining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

-o'zbek milliy mumtoz **va** zamonaviy adabiyoti namunalarini jahon tillariga sifatli o'girishga **doir** tarjimonlik maktablarini rivojlantirish, xorijiy tillarga tarjima qilingan o'zbek ijodkorlari asarlarini keng targ'ib qilishni tizimli yo'lga qo'yish;

-buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini keng targ'ib qilish **maqsadida** yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarini xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ularga **muvofig** ilmiy va ommabop risolalar yaratish.

“Kim g'olib?” usuli

Ushbu matndagi ko'makchi, bog'lovchi va fe'l so'z turkumlarini ko'chirib yozish topshiriladi.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi 1 va 2-ilovalarga muvofig tasdiqlansin:

-Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida:

-2026-yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to'liq qamrab olinsin.

Beshinchi yo'nalishda asosan ma'naviy va ma'rifiy sohalar rivojlantiriladi. Shu maqsadda “Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi amalga oshiriladi. Madaniyat va san'atni yuksaltirish, yoshlarni sog'lom e'toqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik hamda o'zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat beriladi.

“Fikrni charxlang” usuli

O'quvchilar yil nomlariga qarab, uning yilini topib daraxtga yopishtiradilar, xato va kamchiliklari o'qituvchi tomonidan to'g'rilanadi.

2024 - Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili

2023 - Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili

2022 - Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili

2021 - Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili

2020 - Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili

2019 - Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlantirish yili

2018 - Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili

“Telegramma” usuli

Ta'lim oluvchilar mavzu o'zlashtirilgandan so'ng, o'z istak (she'r, tilak, lirik qahramon, hayotiy voqea va hokazo) larini bildirib yonidagi ta'lim oluvchiga yoki yaqin kishisiga telegramma jo'natadi (qog'ozlar bilan almashinadi). Bu usulda ko'makchilar imlosidan foydalanishlari mumkin.

“Izohli yozuv” usuli**Ushbu gaplardagi yordamchi soʻz turkumlarini izohlash topshiriladi.**

Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi doirasida oʻtgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi boʻlgan shaxslar boʻyicha alohida maʼlumotlar bazasini yaratish, jumladan, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ni “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” bilan integratsiya qilish yoʻlga qoʻyilsin.

“Matbuot sahifalarida” usuli

Respublika gazetalaridan koʻmakchilar ishtirok etgan gaplarni koʻchirib yozish topshiriladi.

Oʻquvchilar bilimi izohlanib baholanadi va uy ishi topshiriladi.

Darsni xulosalashda oʻqituvchi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikri yoshlarga dasturulamali boʻlishi lozimligini taʼkidladi: “Xalqimiz talablarini inobatga olgan holda, biz YANGI OʻZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINI ishlab chiqdik. Prezident sifatida men mamlakatimiz tinchligi, el-yurt farovonligi, Vatan taraqqiyoti yoʻlida butun borligʻimni bagʻishlab xalqimga sadoqat bilan xizmat qilishni hayotimning maʼno-mazmuni deb bilaman. Siz, qadrlı vatandoshimning, chin dildan qoʻllab-quvvatlashingiz, nuroniy otaxon va onaxonlarimizning duolari, aziz yoshlarimizning ishonchi menga katta kuch va gʻayrat beradi”.

Xulosa sifatida aytish joizki, ushbu darsdan koʻzlangan maqsad oʻquvchilarning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, maʼnaviy-maʼrifiy qarashlarini yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda yanada shakllantirish boʻlib, uni amalga oshirish oʻqituvchining uslubiy mahoratiga boʻgʻliqdir.

REFERENCES

1. N.Mahmudov, Y.Odilov, G.Ziyodullayeva . Ona tili. - Toshkent-2018.
2. N.Saidaxmedov, S.A. Abdurahimov. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar.Toshkent -2019.
3. 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi. “Zarafshon” gazetasi, 28-yanvar 2024-yil